

# OLDI-SOTDI SHARTNOMASI

19«9»2022 yil.

617-11-169-OB/2022-son

Farg'ona shahar Obodonlashtirish Boshqarmasi rahbari D.Xodjayeva bundan buyon bir tomondan «Buyurtmachi» deb yuritiladi, nizom asosida harakat qiluvchi, ikkinchi tomondan "ORIENT LIDER STROY" MCHJ rahbari A.Nurmatov guvohnoma asosida ish yurituvchi bundan buyon «Sotuvchi» deb yuritiladi va quyidagilar haqida ushbu shartnoma tuzildi.

## I. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. «Sotuvchi» Farg'ona shahar Obodonlashtirish boshqarmasiga qurilish materiallari sotib olish uchun, «Buyurtmachi» esa yetkazib berilgan mahsulot uchun to'lovlarni belgilangan tartibda oshirish majburiyatini oladilar.

## II. SHARTNOMA NARXI

2.1.

t/r №	Tovarning nomi	O'lchov birligi	Miqdori	Narxi	So'mmasi
1.	Bitum	Tonna	3	6 784 000	20 352 000
	Jami:				20 352 000

Tovarlarning shartnomaviy umumiy bahosi 20 352 000 so'm (Yigirma million uch yuz ellik ikki ming) so'm.

## III.HISOB-KITOB QILISH TARTIBI

3.1. «Buyurtmachi» ko'rsatilgan xizmatning 30 % miqdorida pul mablag'ini oldindan o'tkazish yo'li bilan to'lovni amalga oshiradi. Qolgan 70 % to'lovni «Sotuvchi» tomonidan ishlar to'liq bajarilib, hisob-fakturalarni taqdim qilingandan so'ng amalga oshiriladi.

3.2. Mahsulotlar «Sotuvchi»ning transportida yetkazib berilganda transport xarajati o'zaro kelishilgan holda qo'shimcha belgilanadi.

## IV. TOVAR YETKAZIB BERISH MUDDATI

4.1. «Sotuvchi» mazkur shartnoma qonuniy kuchga kirgandan so'ng tovarni 10 ish kun muddat ichida «Buyurtmachiga» ga topshirishi shart.

## V. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI

### 5.1. «Sotuvchi» majburiyatlari:

- Shartnomada ko'rsatilgan talablarga rioya qilgan holda o'z vaqtida «Buyurtmachiga»ga mahsulotni ko'rsatish;

- Tegishli darajada mahsulotni ko'rsatilgandan so'ng, sifatli bo'lmagan mahsulotni ushbu shartnomaning

2-bandiga asosan sifatli bo'lmagan mahsulotni bahosini qaytarib berish.

- «Sotuvchi» yetkazib bergan mahsulotlarini hisob-varaqlarda to'liq va aniq nomini, mahsulot navini, kategoriyasini va boshqa ko'rsatkichlarini ko'rsatishi shart. Shuningdek, hisob-varaqlarni belgilangan tartibda raqamlab, to'liq rekvizitlarni rasmiylashtirish lozim.

### 5.2. «Buyurtmachi»ning majburiyatlari:

- «Buyurtmachi» shartnomada belgilangan talablarga rioya qilgan holda to'lovlarni amalga oshirish, tovarni dalolatnoma tuzib ushbu shartnomada va qonun hujjatlarida belgilangan butlash tartibiga, soniga, sifatiga qarab o'z vaqtida mahsulotni qabul qilib olishi lozim.

- Tegishli darajada sifatli bo'lmagan mol-mulk kelib tushganligi aniqlangandan so'ng, ushbu to'g'risida tegishli dalolatnoma tuzilib bu haqida 3 ish kun ichida «Sotuvchi»ni ogohlantirish.

- To'liq rasmiylashtirilmagan hamda mahsulotning sifati, navi va kategoriyalari ko'rsatilmagan hisobvараqlar bo'yicha to'lovlar amalga oshirilishiga yo'l qo'yilmaydi.

## VI. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

6.1. Ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni ijro etilmasligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi uchun tomonlar O'zbekiston Respublikasi Qonunchiligida shuningdek ushbu shartnomada nazarda to'tilgan talablar asosida javobgardirlar. Nizolar buyurtmachi joylashgan Iqtisodiy sud orqali hal qilinadi/

6.2. «Sotuvchi» tomonidan «Buyurtmachi»ga tovar va mahsulotlarni belgilangan muddatlarda yetkazib bermaganligi uchun kechiktirilgan har bir kun uchun yetkazib berilmagan mahsulot qiymatining 0,4 % miqdorida «Xaridor»ga penya to'laydi, lekin penya miqdori kechiktirilgan mahsulot qiymatining 50 % dan oshmasligi kerak.

6.3. Shartnoma talablarida ko'rsatilgan belgilangan sifatlardagi hamda butlashdagi mol-mulk yetkazib berilmagan taqdirda, aybdor taraf ushbu mahsulot qiymatining 20 % miqdorida jarima to'lashiga sabab bo'ladi.

6.4. «Buyurtmachi» tomonidan olingan tovar yoki mahsulot uchun to'lovlar o'z vaqtida amalga oshirilmagan taqdirda kechiktirilgan har bir kun uchun kechiktirilgan so'mmaning 0,01 % miqdorida «Sotuvchi»ga penya to'laydi, bunda penyaning umumiy miqdori kechiktirilgan so'mmaning 50 % dan ortiq bo'lmasligi lozim.

6.5. Nazorat organlari tomonidan o'tkazilgan tekshirish davomida yetkazib berilgan tovar yoki mahsulotlar narxi yuqori deb topilgan taqdirda o'rtadagi farq yetkazib beruvchi tomonidan qoplanadi.

## VII. FORS-MAJOR HOLATLARI

7.1. Xech bir taraf ikkinchi taraf oldida o'ziga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra va yengib bo'lmas kuch mavjud bo'lgan taqdirda ushbu shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlari bo'yicha javobgar emas. Favqulotda tUSDagi holatlarga: suv toshqini, yong'in, yer qimirlashi va boshqa tabiiy ofatlar, shuningdek harbiy harakatlar, davlat organlarining aklari yoki harakatlari va taraflar nazorat qila olmaydigan boshqa har qanday holatlar tegishlidir.

7.2. Taraflar ushbu shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarni bajarmaslik sabablari to'g'risida albatta ikkinchi tarafni ogohlantirishi shart.

7.3. Agar bartaraf qilib bo'lmaydigan kuch 1 oy davomida uzluksiz ravishda davom etsa, taraflar bir-birini yozma ravishda ogohlantirib, Shartnomaning ijrosini bekor qilish yoki qo'shimcha ijro muddatlarini belgilashlari mumkin.

## VIII. KORRUPSIYAGA QARSHI QO'SHIMCHA SHARTLAR

8.1 Taraflar shartnoma tuzishda, shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganidan so'ng, shartnoma bilan bog'liq korrupsiyaviy harakatlarni sodir qilmaslikka kelishib oladilar.

8.2. Taraflar shartnomadagi korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan korrupsiyaning oldini olish choralarni tan oladi va ularga rioya etilishi bo'yicha hamkorlikni ta'minlaydilar.

8.3 Har bir taraf shartnoma tuzilgan paytda bevosita o'zi yoki uning ijroiya organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan shartnoma bilan bog'liq munosobalar yuzasidan qonunga xilof ravishda pul, moddiy qiymatliklar berilmaganligini, shartnoma tuzilishi evaziga norasmiy pul yoki boshqa moddiy qiymatliklar olinishga yo'l qo'yilmaganligini, taklif etilmaganligini, ularni berishga va'da qilinmaganligini, shuningdek moddiy yoki har qanday turdagi imtiyoz, ustunliklar olinmaganligini (kyelajakda bu turdagi harakatlarni amalga oshirishi mumkinligi haqida taassurot qoldirmaganligini) kafolatlaydi. Taraflar, ular tomonidan shartnoma doirasida jalb qilingan shaxslarning (yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorati ostidagi boshqa shaxslarning) yuqoridagi harakatlarni sodir etmasligi yuzasidan oqilona choralar ko'radi.

8.4. Ushbu holat bo'yicha bir taraf ikkinchi tarafni hamda vakolatli davlat organlarini darhol xabardor qilishi shart.

8.5 Tarafning talabi bo'yicha ikkinchi taraf tomonidan qoidabuzarliklarni bartaraf qilish bo'yicha oqilona muddat ichida tegishli choralar ko'rilmagan yoki ko'rib chiqish natijalari haqida xabardor qilmagan taqdirda, ushbu taraf shartnomani bir taraflama to'xtatib turishga, bekor qilishga hamda zararni to'liq qoplab berishni talab qilishga haqli.

## IX. SHARTNOMANI O'ZGARTIRISH VA BEKOR QILISH TARTIBI

9.1. Ushbu Shartnomani bajarish, o'zgartirish va uni bekor qilishda paydo bo'ladigan nizolar eng avvalo taraflarning kelishuvi bilan hal qilinadi. O'zaro kelishilmagan taqdirda mavjud nizolar iqtisodiy sudi orqali O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari asosida hal qilinadi.

9.2. Shartnoma taraflarning o'zaro kelishuviga asosan yoki O'zbekiston Respublikasi Fukarolik kodeksiga hamda amaldagi qonun hujjatlari normalariga binoan keltirilgan zararni to'lagan holda muddatidan ilgari bekor qilish mumkin.

9.3. Ushbu shartnoma 2022-yil 31-dekabrgacha 2 nusxada tuzildi. Shartnoma taraflar tomonidan imzolaniib, hududiy G'aznachilik boshqarmasi (bo'limi)da belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng qonuniy kuchga kiradi.

## X. QO'SHIMCHA SHARTLAR


## XI. TOMONLARNING MANZILLARI VA REKVIZITLARI

### Tomonlarning manzillari va rekvizitlari:

"ORIENT LIDER STROY" MCHJ	"Farg'ona shahar obodonlashtirish boshqarmasi"
<b>Manzil:</b> Fargona shahar, Farobiy ko'chasi, 9/1-uy	<b>Manzil:</b> Farg'ona shahar Mustaqilik ko'chasi 3-uy
<b>Tel/faks:</b> 99 915 53 56	<b>Tel/faks:</b> +998954000105
<b>X/r:</b> 20208000204579305001	<b>INN</b> 200 145 479 <b>OKOHX</b> 90290
Uneversal bank ATB Fargona filiali	<b>X/r:</b> 2340 2000 3001 0000 1010
<b>MFO:</b> 01131	Markaziy bank Toshkent XKKM
<b>STIR:</b> 300210387	<b>MFO:</b> 00014
<b>QQS to'lovchining kodi:</b>	<b>STIR:</b> 201 122 919

Direktor

O. Mirzaakbarov

	Hujjat <b>elektron raqamli imzo</b> orqali imzolangan. Elektron raqamli imzoning haqiqiylikini tekshirish uchun <b>QR Code</b> ni skanerlang.	
	Imzolovchi F.I.SH.	DILFUZA XODJAYEVA AXMADALIYEVNA
	Imzolangan sana	19 сех 2022 10:05
	Hujjat kodi	<b>PD3165450380</b>
	Hulosa kodi	<b>ZC2121323027</b>

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUNCHILIK  
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA  
HUQUQIY XULOSA**

№ ZC2121323027

**1. Loyihaning turi:** oldi-sotdi shartnomasi

**2. Loyihaning turkumi:** “ORIENT LIDER STROY” MCHJdan umumiy qiymati 20 352 000 so‘m (Yigirma million uch yuz ellik ikki ming) so‘mlik mahsulotni sotib olish haqida

**3. Loyihaning ishlab chiquvchisi va “E-huquqshunos” elektron tizimiga kiritilgan sana haqidagi ma’lumot:**

Farg‘ona shahar Obodonlashtirish bo‘limi tomonidan 2022-yil 15-sentabr kuni ishlab chiqilgan. Xato va kamchiliklari bartaraf etilib, 2022-yil 16-sentabr kuni “E-huquqshunos” elektron tizimi orqali huquqiy ekspertizaga taqdim etilgan.

**4. Loyiha bo‘yicha taklif:**

Loyiha amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq to‘g‘ri rasmiylashtirilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, huquqiy ekspertizadan o‘tkazish natijalariga ko‘ra,

**X U L O S A:**

Mazkur buyruq loyihasi mazmuni amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiqdir.

**Markaz bosh yuriskonsulti:**



**S.Raximov**

*2022-yil 16-sentabr*



19.09.2022 йил

Фарғона шаҳри

Фарғона шаҳар Ободонлаштириш бошқармасига Курилиш материаллари (битум) сотиб олиш билан боғлиқ харажатлар учун №144428 лот рақамли эълоннинг 07 сентябр 2022 йил кунги электрон баённомаси муҳокама натижалари тўғрисидаги харид комиссиясининг тегишли мажлиси

### БАЁННОМА ХУЛОСАСИ

1. Фарғона шаҳар Ободонлаштириш Бошқармасига Курилиш материаллари (битум) сотиб олиш билан боғлиқ харажатлар учун маҳаллий бюджетдан ажратилган маблағлар ҳисоби ва харажатларнинг иқтисодий таснифи бўйича мос келади.
2. Фарғона шаҳар Ободонлаштириш Бошқармасига Курилиш материаллари (битум) сотиб олиш билан боғлиқ харажатлар 07 сентябр 2022 йил кунги тузилган харид комиссиясининг электрон баённомаси йўлланган тижорат таклифларни баҳолаш асосида тузилган.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 22 апрелдаги «**Давлат харидлари тўғрисида**» ги (ЎРҚ-684-сон) Қонуннинг 7-боб 62-моддасининг 3 ва 7-бандарига асосан **etender.uzex.uz** махсус ахборот порталидаги 06 сентябр 2022 йил кунги тузилган харид комиссияси электрон баённомасининг 2 кунлик муҳокама вақтида ҳеч қандай эътирозлар келиб тушмаганлиги сабабли электрон баённомада голиб деб топилган «Ориент Лидер Строй» МЧЖ билан белгиланган тартибда 20 352 000 (Йигирма миллион уч эллик икки минг ) сўмлик шартнома тузилсин.

Комиссия аъзолари:

Д.Ходжаева  Бошқарма бошлиғи

Б.Ганиев  Бош ҳисобчи

Н.Мамаджонов  Техназор

У.Умаров  Участка устаси

С.Таджибаев  Омборчи